

MUHAMMAD AL-XORAZMIY  
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI  
FERGANA BRANCH OF TUIT  
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

# "AL-FARG'ONIY AVLODLARI"

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIM DAGI  
ILMIY, OMMABOP  
VA ILMIY TADQIQOT  
ISHLARI



1-SON 1(5)  
2024-YIL

TATU, FARG'ONA  
O'ZBEKISTON



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

## MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI



**Muassis:** Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

**Chop etish tili:** O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'naliشida maqolalar chop etib boradi.

**Учредитель:** Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

**Язык издания:** узбекский, английский, русский.

Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

**Founder:** Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

**Language of publication:** Uzbek, English, Russian.

The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2024 yil, Tom 1, №1  
Vol.1, Iss.1, 2024 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniy avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fergani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal OAK Rayosatining 2023-yil 30 sentabrdagi 343-sonli qarori bilan Texnika fanlari yo'naliشida milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:  
151100, Farg'ona sh.,  
Aeroport ko'chasi 17-uy,  
202A-xona  
Tel: (+99899) 998-01-42  
e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2024 YIL

## TAHRIR HAY'ATI

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Muxtarov Farrux Muhammadovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

**Arjannikov Andrey Vasilevich,**

Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

**Satibayev Abdugani Djunusovich,**

Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasulov Akbarali Maxamatovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Axborot texnologiyalari kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori

**Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

**G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

**G'aniyev Abdusalil Abdujaliovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrasi t.f.n., dotsent

**Zaynidinov Hakimjon Nasritdinovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellekt kafedrasi texnika fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich,**

Farg'ona politexnika instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

**Abdullahov Abdujabbor,**

Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

**Qo'ldashev Abbasjon Hakimovich,**

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

**Ergashev Sirojiddin Fayazovich,**

Farg'ona politexnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, professor

**Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari

**Zulunov Ravshanbek Mamatovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

**Saliyev Nabijon,**

O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali dotsenti

**Abdullaev Temurbek Marufovich,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Axborot texnologiyalari kafedra mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

---

**Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:**



*Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.*

## MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Umarov Shuxratjon Azizjonovich, Abduqodirov Abdulhay, AXBOROT XAVFSIZLIGI TIZIMLARINI INTELLEKTUALLASHTIRISH MASALALARI	4-10
Ахунджанов Умиджон Юнус угли, ЛОКАЛЬНАЯ КРИВИЗНА КАК СТРУКТУРНЫЙ ПРИЗНАК ВЕРИФИКАЦИИ СТАТИЧЕСКОЙ ПОДПИСИ	11-16
Liu Lingyun, Linear cryptanalysis of the SM4 block cipher algorithm	17-22
Shaxzoda Amanboyevna Anarova, Jamoliddin Sindorovich Jabbarov, Doston Naim o'g'li Muxtorov, FRAKTAL XUSUSIYATLI ORGANLARNING O'LCHOVLARINI ANIQLASH SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	23-28
E.M.Urinov, M.A.Umarov, O'zbek ishora tili harflarini tanib olish algoritmi	29-33
Kengboev Sirojiddin Abray ubgli, MATHEMATICAL MODEL OF CALCULATION OF THE TEMPERATURE IN THE CONTACT ZONE OF INTERACTION BETWEEN THE SHUTTLE SOCKET AND THE BOBBIN OF SEWING MACHINES	34-38
Anarova Sh.A., Saidkulov E.A., Xaqberdiyev S.N, ZARAFSHON DARYO TARMOG'INI GEOMETIRIK MODELLASHTIRISH	39-43
Xamrakulov Umidjon Sharabidinovich, Ashuraliyev Alisherjon Abdumalikovich, REAL VAQT REJIMIDA NOQAT'YIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHNING ANALITIK MODELLARINI ISHLAB CHIQISH	44-56
Sharibayev Nosirjon Yusubjanovich, Kayumov Ahror Muminjonovich, TRIKOTAJ TO'QIMALARINING SHAKL SAQLASH XUSUSIYATLARINI RAQAMLI BAHOLASH USULLARI	57-61
Xasanova Maxinur Yuldasbayevna, Yo'ldosheva Dilfuza Shokir qizi, Burxonova Malohat Mamirovna, BAHOLASH NAZARIYASI USULI ASOSIDA AVTOMATIK TIZIMLARNI DIAGNOSTIKALASH ALGORITMLARI	62-68
Улжаев Эркин, Убайдуллаев Уткирjon, Абдулхамидов Азизжон, Нейронные технологии распознавания и классификация степени раскрытия хлопковых коробочек	69-79
Узаков Б.М., Хошимов Б. М, ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ИДЕНТИФИКАЦИИ МОДЕЛЕЙ ВИРТУАЛЬНЫХ АНАЛИЗАТОРОВ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА РЕКТИФИКАЦИОННОЙ КОЛОННЫ	80-84
Rahmatullayev Ilhom Rahmatullayevich, Umurzakov Oybek, SHA oilasiga mansub xesh funksiyalar tahlili	85-92
Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Samatova Zarnigor Nematovna, BULUTLI TEKNOLOGIYALARDA KIBERXAVFSIZLIK TAMINLASHDA CASB YECHIMLARI	93-98
Эргашев Отабек Мирзапулатович, ПРОГРАММНЫЕ КОМПЛЕКСЫ И ИХ РОЛЬ В ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ	99-105
Ёркулов Руслан Махаммади угли, СОСТАВ И СТРУКТУРА МЕЖФАЗНОЙ ГРАНИЦЫ Si /Al(111) И Si /Cu(111)	106-109
Muxtarov Farrux Muhammadovich, KIBERHUQUQ VA KIBERETIKA MADANIYATINING SHAKILLANTIRISHDA "KIBERXAVFSIZLIK ASOSLARI" FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI	110-115
Asrayev Muhammadmullo Abdullaev o'g'li, Kurbanov Abduraxmon Alishboevich, Fayziyev Voxid Orzumurod o'g'li, YUZ IFODASINI ANIQLASH MODELLARINI OPTIMALLASHTIRISH: GRADIENTNI OSHIRISH VA UNING GIPERPARAMETRLARNI SOZLASH VA MUNTAZAMLASHTIRISH (REGULARIZATSIIYA)DAGI AHAMIYATI	116-122
Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich, Xudoyberdieva Muhayyohon Zoirjon qizi, Abdubannobov Muydinjon Iqboljon o'g'li, G'ulomqodirov Xumoyun O'tkirjon o'g'li, Zaylobiddinov Bekhzod Bakhtiyorjon o'g'li, Ergasheva Gulruxsor Qobiljon qizi, DEVELOPMENT OF PRACTICAL COMPETENCES OF STUDENTS IN NANOTECHNOLOGY AND SEMICONDUCTOR PHYSICS IN HIGHER EDUCATION	123-128
Xudoqulov Zarifjon Turakulovich, Rahmatullayev Ilhom Rahmatullayevich, Mayjud oqimli shifrlash algoritmlarining qiyosiy tahlili	129-134
Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Akhmadjonov Ikhtiyorjon Rovshanjonovich, Ergashev Otobek Mirzapulatovich, THE METHODS OF AUTOMATIC LICENSE PLATE RECOGNITION	135-141
Asrayev Muhammadmullo Abdullaev o'g'li, Fayziyev Voxid Orzumurod o'g'li, Turakulova Shaxnoza Abdurshidovna, Ermatova Zarina Qaxramonovna, Tibbiy tasvirlar ichida alohida qiziqish hududlarini (Region of interest-ROI) avtomatik aniqlash va izolyatsiya qilish	142-146
Rasulov Akbarali Makhamatovich, Ibrokhimov Nodirbek Ikromjonovich, Minamatov Yusupali Esonali ugli, Mukhtarov Farrukh Muhammadovich, BIMETALLIC CLUSTERS AND AREAS OF THEIR APPLICATION	147-150
Uzakov Barxayotjon Muxammadiyevich, Xoshimov Baxodirjon Muminjonovich, O'ZBEKİSTON NEFT-GAZ KORXONALARIDA INVESTISIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASINI O'RGANISH	151-156
Xalilov Durbek Aminovich, Abduqodirova Mohizoda Ilhomidin qizi, MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHNING TEXNIK USULLARI	157-160

## MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Алляярова Гулмира Холмуратовна, Буронов Нурлибек Рустам угли, Зарипов Шухрат Собиржон угли, Исследование ионно-электронной эмиссии пленок Cs на гранах (110) и (111) монокристаллов молибдена	161-165
Jo‘rayev Mansurbek Mirkomilovich, Simsiz sensor tarmoq asosida nozik sug‘orish tizimlarini modeli va innovatsion loyihalar	166-172
Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Akhmadjonov Ikhtiyorjon Rovshanjonovich, Ergashev Otobek Mirzapulatovich, METHODOLOGY FOR BUILDING LICENSE PLATE RECOGNITION SYSTEMS	173-179
Abduhafizov Tohirjon Ubaydulla o‘g’li, Abdurasulova Dilnoza Botirali qizi, IQTISODIY JINOYATLAR VA ULARNING OLDINI ÖLISH UCHUN DASTURIY MAHSULOTLAR ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH	180-185
Djurayev Sherzod Sobirjonovich, Ermatova Zarina Qaxramonovna, Linter qurilmasini ishchi qismlarini masofadan boshqarish va nazorat qilish orqali uning samaradorligini oshirish	186-190
Xusanova Moxira Qurbonaliyevna, Sotvoldiyeva Dildora Botirjon qizi, SIGNALLARNI STATISTIK QAYTA ISHLASH	191-195
Xalilov Durbek Aminovich, Qurbonova Gulruxsor Murodjon qizi, Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalar mustaqil ishini tadqiqoti va metodikasini takomillashtirish	196-200

## O'zbek ishora tili harflarini tanib olish algoritmi

**E.M.Urinov,**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
"University of management and future technologies" universiteti  
Email: u.elmurod1988@gmail.com

**M.A.Umarov,**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
"University of management and future technologies" universiteti  
muhriddin.umarov@gmail.com

**Annotasiya.** Ushbu maqolada o'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosi harflarini tanib olish algoritmi yoritilgan bo'lib, qo'yilgan masalani yechish uchun chuqur o'qitishga asoslangan YOLO arxitekturasining beshinchı versiyasidan foydalanilgan. Modelni o'qitish uchun o'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosi harflarini ifodalovchi tasvirlardan tashkil topgan tasvirlar to'plami hosil qilingan. Ishlab chiqilgan model samaradorligini baholash uchun precision, recall, average precision kabi mezonlardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** imo-ishora tili, sun'iy neyron tarmoqlar, YOLO, daktıl alifbo, tasvirlar to'plami, baholash mezonlari, obyektlarni aniqlash

**Kirish.** Imo-ishora tili qo'l va tana harakatlari yordamida sog'lom va eshitishda nuqsoni bor yoki umuman eshitmaydigan (kar-soqov) shaxslar o'rtasidagi muloqot o'rnatishda foydalaniladigan vosita hisoblanadi. Dunyoda muloqotdagi deyarli hamma tilning o'zga xos imo-ishora tili mavjud. Lekin aksariyat insonlar imo-ishora tilini tushunmasligi kar-soqov insonlarning jamiyatda yetarlicha o'z o'rnini topishda katta to'siq ekanini guvohi bo'lish mumkin. Imo-ishora tilini yozuvlar orqali ushu tilni tushunmaydigan insonlarlarga samarali tarjima qilib berish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Jalal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari hamda kompyuter ko'rish algoritmlari imo-ishora tilini real vaqt rejimida matnli yozuvga yoki audio ma'lumotga o'girish imkoniyatini yaratmoqda. Ushbu maqolada O'zbek imo-ishora tili (O'IT) ning daktıl alifbosini tanib olishga mo'ljallangan algoritmi yoritilgan. Taklif etilgan algoritmnı ishlab chiqishda o'ramli neyron tarmoq (CNN) arxitekturasi asosida qurilgan YOLO (You Only Look Once) obyektlarni aniqlash algoritmidan foydalanilgan.

**Masalaning o'rganilganlik darajasi.**  
Dunyoda 300 dan ortiq turli xil imo-ishora tillari

mavjud va ularning aksariyati to'liq tabiiy tillar sifatida tan olingan. Shuningdek, xalqaro imo-ishora tili (International sign language, ISL) ham mavjud bo'lib, u turli mamlakatlardagi kar va eshitish qobiliyati zaif odamlar tomonidan karlar o'rtasidagi xalqaro tadbirdarda va muloqotda qo'llaniladi [1]. Keng tarqalgan ishora tillari sifatida amerika imo-ishora tili (AIT), xitoy imo-ishora tili (XIT), britaniya imo-ishora tili (BIT), rus imo-ishora tillarini (RIT) keltirish mumkin. O'zbekiston va boshqa sobiq sovet ittifoqi davlatlari hududida RIT ishlatiladi. Dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qирғизистон, Тоҷикистон ва О'збекистонда qo'llaniladigan imo-ishora tili Rossiya Federatsiyasida qo'llaniladigan RITdan unchalik farq qilmaydi. Biroq mahalliy madaniy konteksdan kelib chiqib, ba'zi farqlanishlar ham kuzatiladi [2]. Misol uchun "D" va "J" harflari rus alifbosidan farqli belgilar bilan ifodalansa, "O", "G", "Q" harflari faqatgina o'zbek tilida ishlatilgani uchun rus daktıl alifbosida uchramaydi. Shuningdek, "Щ", "Ь", "Е", "Ё", "Ц" kabi rus daktıl alifbosidagi harflar lotin yozuviga asoslangan o'zbek daktıl alifbosida mavjud emas. 1-rasmida o'zbek va rus tili daktıl alifbosi keltirilgan. Hozirda respublikamizda rus va lotin yozuvidagi daktıl alifbolardan foydalanilanib



kelinmoqda. "O'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risi" dagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorining 5-bandida 2024-yil 1-yanvarga qadar ilg'or xorijiy tajribaga tayangan holda O'ITning ilmiy asoslarini va uning lotin yozuviga asoslangan daktıl alifbosini ishlab chiqish hamda ushbu ishlarga oid ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha grantlar ajratish uchun tanlovlardan o'tkazilishini tashkillashtirish belgilab o'tilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan qarordan kelib chiqqan holda lotin yozuvidagi daktıl alifbosini tanib olishga mo'ljallangan algoritm ishlab chiqish maqsad qilingan. O'ITning o'ziga xos murakkabligi shundaki, alifbo harflari lotincha bo'lgani bilan uning belgisi rus daktıl alifbosi belgilaridan olingan. Bu esa imo-ishora tilini matnga o'girishda bir qator murakkabliklar keltirib chiqaradi. Ya'ni, videoda tasvirlanayotgan imo-ishora tilidagi xabarni lotin yozuvida matnga o'girish kerak bo'ladi. Agar ushbu xabarni kril yozuvidagi matnga o'girish mumkin bo'lgan ushbu masalaning yechimi bir qadar yengillashishi mumkin bo'lar edi. Chunki bunday holatda avvaldan rus tilida ishlab chiqilgan yechimlardan ham foydalanish imkon bo'lar edi.



O'zbek imo-ishora tilining lotin yozuvidagi daktıl alifbosi



Rus daktıl alifbosi

### 1-rasm. O'zbek va rus daktıl alifbosi.

**Adabiyotlar tahlil.** Hozirda ko'plab rivojlangan davlatlarda ishora tilini tanib olishga mo'ljallangan dasturiy tizimlar ishlab chiqilgan. AQSh, Kanada, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda ushbu masalani yechish bo'yicha ko'plab yutuqlarga

erishilgan. So'ngi yillarda chuqur o'qitishga asoslangan algoritmlar imo-ishora tilini tanib olish aniqligi va tezligini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa o'ramli nevron tarmoq arxitekturalardan foydalanish boshqa usullardan samaradorligi bo'yicha ajralib turadi. [3] ishda YOLO modeli arxitekturasi asosida harf va raqamli ma'lumotlarni tanib olishga mo'ljallangan usul taklif etilgan. Mualliflar algoritm samaradorligini baholash uchun MU qo'l tasvirlari to'plami va Okkhon Nama tasvirlar to'plamidan foydalangan va mos ravishda 98,9% va 97,6% aniqlikka erishgan. [4] ishda Generativ raqobatlashuvchi nevron tarmoq (GAN-Generative adversarial network) modeli taklif etilgan bo'lib, bunda imo-ishoralarni tanib olish uchun iyerarxik yondashuv ilgari surilgan. Taklif etilgan model davomli ma'lumotlarni tavsiflash uchun ikkita o'ramli qatlamlari, kiruvchi ma'lumotlarni siqilgan ko'rinishini ifodalovchi yashirin fazo va uning ma'lumotlarini tanib oluvchi qatlamlarni (HAN – Hierarchical Attention Network) o'z ichiga oladi. Mualliflar algoritm samaradorligini baholash uchun CSL (Chinese Sign Language) va SLR (Sign language recognition) tasvirlar bazasidan foydalangan va ikkala to'plam bo'yicha o'rtacha 83% aniqlikka erishgan. [4] maqolada ikkita kiruvchi qatlamlari o'ramli nevron tarmoq modeli taklif etilgan bo'lib, bunda modelga kiruvchi ma'lumot sifatida imo-ishora tili belgisi tasvir va qo'lning shu belgini ifodalagan holatdagi maxsus nuqtalarini o'qitilgan. Dastlabki ishlov berish bosqichida imo-ishora tasviri ustida kulranga o'tkazish, o'lchamlarini kamaytirish va chegaralarni aniqlash kabi amallar bajarilgan bo'lsa, qo'lning maxsus nuqtalarini aniqlash uchun ushbu nuqtalar joylashgan koordinatalar aniqlanadi. To'liq bog'langan qatlamlardan avval ushbu ikki qatlam birlashtiriladi va chiquvchi qatlam sifatida ishora belgisi tasniflanadi. Ushbu usul tasvir modelida 96.24% va maxsus nuqtalar modelida 96.29% aniqlikka erishgan bo'lsa, ikkala usulni birlashtirish orqali 98.98% aniqlikni qayd etgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan usul va algoritmlardan tashqari yana ko'plab chuqur o'qitishga asoslanga algoritmlar ishlab chiqilgan bo'lishiga



qaramay o'zbek tili uchun bunday dasturiy usul yoki  
algoritm ishlab chiqilmagan.

**Masalaning qo'yilishi.** Ushbu maqolada  
o'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini tanib  
olishga mo'ljallangan algoritm taklif etilgan bo'lib,  
algoritmnı ishlab chiqish uchun transfer-learning  
(oldindan o'qitilgan CNN model) yondashuv  
qo'llanilgan va buning uchun YOLO arxitekturasi  
tanlab olingan. Modelni o'qitish uchun lotin yozuviga  
asoslangan o'zbek daktıl alifbosi belgilaridan tashkil  
topgan tasvirlar to'plami hosil qilindi. Hosil qilingan  
to'plam 464 ta o'quv namunasidan tarkib topgan  
bo'lib, bunda har bir sinf uchun 16 tadan tasvir  
ajratilgan.

**To'plamga qo'yilgan talablar.** Bilamizki,  
sun'iy neyron tarmoq modellarini ishlab chiqish  
modelga katta hajmli ma'lumotlar to'plamini o'qitish  
orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida modelni  
o'qitishga mo'ljallangan to'plamga ham qator talablar  
qo'yildi. To'plamda har bir sinfdagi o'quv  
namunalairini iloji boricha teng taqsimlanishi, bir  
sinfga tegishli namunalaning yetarlicha ko'p bo'lishi  
va turli ko'rinishlarda (fon, rakurs, yorqinlik,  
okklyuziya va boshqa tashqilar) aks etishi,  
na'munalarning bir xil hajmda bo'lishi kabilar shular  
jumlasidan. Dunyo tajribasidan ma'lumki, imo-ishora  
tilini tanib olishdagi dastlabki qadam – shu til  
alifbosidagi belgilarni tanib olishga mo'ljallangan  
algoritmnı ishlab chiqish hisoblanadi. So'zlashuvdagı  
har bir tilning boshqa tillardan farq qiluvchi harflari va  
xususiyatlari bo'lgani kabi bir xil harflari va shunga  
muvofig imo-ishora belgilari ham mavjud. Misol  
uchun lotin yozuviga asoslanga o'zbek daktıl  
alifbosida ham ingliz tilidagi harflar bilan bir xil va farq  
qiluvchi harflarni ham uchratish mumkin.

### Taklif etilayotgan model


O'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini  
tanib olish modelini qurish uchun YOLO arxitekturasi  
tanlab olindi. Ushbu arxitekturani ishlash jarayoni uch  
bosqichni o'z ichiga oladi (2-rasm). Birinchi bosqichda  
manbaadan kelayotgan kiruvchi tasvirning xarakterli  
xususiyatlari ajratib olinadi. Shuningdek, CNN modeli  
orqali turli mashtablarda ierarxik xususiyatlarni  
to'plash uchun bir qator konvolyutsiya va birlashtirish

operatsiyalarini bajaradi. Ikkinci bosqichda avvalgi  
bosqichda ajratib olingen xususiyatlardan kelib chiqib,  
ma'lum bir obyekt tavsiflanadi. Uchinchi bosqichda  
aniqlangan obyektning qaysi sinfga tegishli ekanligi  
tasniflanadi. Bizning misolimizda ushu bosqichda  
aniqlangan obyektlar imo-ishora tilidagi qanday  
belgini ifodalashi tasniflanadi.



**2-rasm.** YOLO arxitekturasi.

Taklif etilayotgan o'bek imo-ishora tili  
harflarini tanib olish algoritmi tuzilmasi 3-rasmda  
keltirilgan. Modelga ma'lumotlarni o'qitish uchun  
lotin yozuviga asoslangan o'zbek daktıl alifbosi  
tasvirlaridan iborat tasvirlar to'plami hosil qilindi.  
Hosil qilingan to'plamda ma'lumotlar 29 sinfga  
bo'lingan bo'lib, bu sinflar alifbodagi 29 harfni  
anglatadi. To'plamda har bir sinfga o'qitish uchun 13  
tadan, testlash uchun 3 tadan na'muna ajratilgan.



**3-rasm.** O'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini tanib olish algoritmi tuzilmasi.


**Tajribaviy tadqiq qilish.** YOLO arxitekturasi  
asosida ishlab chiqilgan modelni o'qitish uchun  
maxsus ishlab chiqilgan O'zbek imo-ishora tilining  
daktıl alifbosini (O'ITDA) tasvirlar to'plamidan  
foydanilanigan va o'zbek daktıl alifbosi tasvirlarining  
annotasiyalari kvadrat ramkalar bilan chegaralangan  
(4-rasm).





**4-rasm.** O'zbek daktıl alifbosini belgilash.


Ushbu to'plamning har birida 16 tadan tasvir bo'lgan kichik to'plamlarga bo'linib ketma-ket o'qitilgan. Shu tartibda butun to'plam 50 marta takroran o'qitildi. Epoxalar (to'plamni to'liq o'qitish va testlash jarayoni) sonini ortib borishi bilan o'qitish va sinov bosqichidagi xatolik va aniqlikni o'zgarib borish grafigi 5-rasmda tasvirlangan. Bu yerda *train/box\_los* – o'qitish bosqichidagi belgilarni aniqlash xatoligi, *val/box\_los* – sinov bosqichdagi belgilarni aniqlash xatoligi, *train/obj\_los* – o'qitish bosqichdagi obyektlarni aniqlash xatoligi, *val/obj\_los* – sinov bosqichdagi obyektlarni aniqlash xatoligi, *train/cls\_los* – o'qitish bosqichdagi obyektlarni aniqlash xatoligi, *val/obj\_cls* – sinov bosqichdagi obyektlarni aniqlash xatoligi.



**5-rasm.** Epoxalar ortib borishining model samaradorligiga ta'siri.

Model samarodorligini baholash uchun *precision*, *recall* va *avarage precision* mezonlaridan foydalanildi [5]. Tarmoq stoxastik gradiyent tushish

(SGD) orqaga siljish usuli orqali optimallashtirilgan va maksimal iterasiya  $5 \times 10^2$  kabi o'rnatilgan. Tajribalar 3.2 GHz chastotali protsessor va RTX 3050 videokartali kompyuterda bajarilgan. Taklif etilayotgan algoritm asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotdan olingan natijalar 6-rasmda keltirilgan.



**6-rasm.** O'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini tanib oluvchi dasturiy vositadan olingan natijasi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada o'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini tanib olish algoritmi taklif etilgan bo'lib, qo'yilgan masalani yechish uchun hozirgi kunda obyektlarni real vaqt rejimida tanib olish masalalarida keng qo'llanilayotgan YOLO arxitekturasining beshinchi versiyasidan foydalanildi. Modelni o'qitish uchun o'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini ifodalovchi belgilardan iborat tasvirlar to'plami hosil qilindi. Taklif etilgan model asosida O'zbek imo-ishora tilining daktıl alifbosini tanib oluvchi dasturiy vosita ishlab chiqildi. Maqolada yoritilgan algoritm hamda u asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita o'zbek ishora tili so'zlarini matnga o'tkazish hamda ushbu matndan nutq signallarini sintezlash masalalarini yechish uchun dastlabki qadam vazifasini bajaradi.

## Adabiyotlar

1. Hossain, Mir & Govindaiah, Arun & Sultana, Sadia & Bhuiyan, Alauddin. (2018). Bengali Sign Language Recognition Using Deep



Convolutional Neural Network. 369-373.  
10.1109/ICIEV.2018.8640962.

2. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/24/sign-language/>
3. Nehal F. Attia, Mohamed T. Faheem Said Ahmed, Mahmoud A.M. Alshewimy. Efficient deep learning models based on tension techniques for sign language recognition, Intelligent Systems with Applications. Volume 20. 2023: 200284, ISSN 2667-3053, <https://doi.org/10.1016/j.iswa.2023.200284>.
4. Pathan RK, Biswas M, Yasmin S, Khandaker MU, Salman M, Youssef AAF. Sign language recognition using the fusion of image and hand landmarks through multi-headed convolutional neural network. Sci Rep. 2023 Oct 9;13(1):16975. doi: 10.1038/s41598-023-43852-x. PMID: 37813932; PMCID: PMC10562485.
5. Zhang, E., Zhang, Y. (2009). Average Precision. In: LIU, L., ÖZSU, M.T. (eds) Encyclopedia of Database Systems. Springer, Boston, MA. [https://doi.org/10.1007/978-0-387-39940-9\\_482](https://doi.org/10.1007/978-0-387-39940-9_482).

